



**"ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASIDA HAYOTGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH (ABDULLA QAHHORNING "DAHSHAT" HIKOYASIDA UNSIN OBRAZI, ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA BEKTEMIR, "HELLADOS"DA YANGULI)"**

**Djumatova Gulasal Saburovna**

**Do'smetova Muyassar**

*Xorazm viloyati Gurlan tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

**Metodik tavsiyasi**

**Taqriz**

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda.

Ushbu metodik tavsiyada bir necha fojivaviy hikoya va asarlarning tahlillari va ularni o'quvchilarga tanishtirishda o'quvchilar psixologiyasida hayotga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishdek muhim g'oyani singdirish yoritib berilgan. Metodik qo'llanmadan barcha adabiyot o'qituvchilari foydalanib dars maqsad va vazifalariga samarali erishadilar.

**Adabiyot darslarida o'quvchilar psixologiyasida hayotga muhabbat tuyg'usini shakllantirish (Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida Unsin obrazi, Asqad Muxtorning "Chinor" romanida "Bektemir", Nodar Dumbadzening "Hellados"ida Yanguli)**

Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan ro'l o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbayi hisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongining o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita



jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi. Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda ko'p.

Ushbu metodik qo'llanmada o'quvchilarni hayotni sevishta, u uchun qanday bo'lmasin kurashishga da'vat etuvchi fojiviy hikoyalarga to'xtalamiz. Hayot doim sinovlar va qaltis vaziyatlarga to'la ekanligini anglatib turuvchi, lekin shunday bo'lsada u kurashishga arzishi, inson o'z qadr- qiymatini doim his qilib uni asrashini namoyon qiluvchi bir necha hikoyalarni ko'rib chiqsak.

Abdulla Qahhorning «Dahshat» hikoyasida insonga achinish, mehr-shavqat tuyg'usidan mahrum kimsalarning bechora kishilarni xo'rlashdan cheksiz lazzatlanishi betakror manzaralarda, ta'sirchan detallarida ko'rsatiladi. Ayniqsa, Unsinning qabrston oldiga brogan tasviri, uning ruhiyatini, qabrstonidan qaytganda undagi bo'lgan ruhiy kechinmalarni kitobxon hikoyani o'qiganda his eta oladi va go'yoki, o'sha muhitga o'zini xuddiki tushib qolgandek o'ylaydi. Abdulla Qahhor hikoyalarida har bir obrazlarning detallari uning ruhiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Yuqoridagi hikoyani mutolaa qilish jarayoni hamisha o'quvchini mahzun qilib qo'yadi. Chunki ularda insoniy munosabatlar murakkabligi gavdalanitiriladi. Ammo yozuvchi manman kimsalarga qahr-g'azabini ham, kambag'al bechoralarga achinish tuyg'usini ham oshkora izhor qilmaydi. Insondagi kechayotgan ruhiy kechinmalarini go'yoki, mavhum, goho oshkora tasvirilaydi. U voqelikni odamlar munosabatidagi ziddiyatni xolis turib gavdalanitiradi. Bechora odamlarga achinish ularga mehr-muruvvat ko'rsatish, qo'lidan kelgancha ko'maklashish har bir inson uchun sharaf sanaladi. Abdulla Qahhor ulug' ijodkorlar ilgari surgan insonparvarlik g'oyalariga mos betakror asarlar yaratdi va o'zbek adabiyotida o'zining mohir hikoyanavisligi to'laligicha namoyon eta bildi.

Ushbu hikoya insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulug'laydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning ko'nglida umid chirog'ini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi. Chunki bu dunyoda orzusiz va maqsadsiz hech kim bo'lib yashagandan ko'ra qanchalik og'ir va qiyin bo'lmasin hayot uchun kurashish afzaldir. Hikoyani o'qir ekanmiz, Unsin obrazi misolida chinakam o'zbek ayolining jasorati, hayotga bo'lgan shijoati, bir insonning hayotga bo'lgan muhabbati, so'nmas irodasi timsoli desak adashmagan bo'lamiz.

“Chinor” romani o'zbek xalq yozuvchisi Asqad Muxtor (1920-1996) tomonidan 1969-yilda yozilgan va “Yangi asr avlodi” nashriyotida nashr etilgan. Roman realistik uslubda yozilgan bo'lib, u insonlar boshiga tushgan fojealar haqida real tarzda hikoya qiladi. Asqad Muxtor bu romanni yozishda hikoyani faqat yaxshilik bilan tugatishga urinmagan, balki hayotning real qiyinchiliklarini va u insonni qay ahvolga solib qo'yishi mumkinligini ko'rsatib bergan. Romanda XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan voqealar tasvirlangan.

Romanda bosh qahramon Akbarali G'oziyev – mehnatkash, kamgap, novcha yigit bir kuni urushda halok bo'lgan otasining do'sti Bektemir bilan tanishib qoladi.



Bektemir unga boshidan o'tgan qiyinchiliklarni so'zlab beradi va undan yordam so'rab kelganini aytadi. Akbarali uni o'zi ishlaydigan kongga olib boradi. Ular yo'lda miriqib gaplashib, konni o'rganib chiqishadi. Ammo, o'sha paytda mudhish bir fojia yuz beradi. Konning qulashi oqibatida Bektemir halok bo'ladi, Akbarali esa qochib qolishga ulguradi. Ammo, Akbarali bir zum o'zini yo'qotib qo'yib, noto'g'ri qaror qabul qilgani uchun Bektemirning o'limida o'zini ayblaydi. Akbarali uzoq yillar davomida vijdon azobida qiynaladi va turli ayanchli holatlarni boshidan o'tkazadi. Bir lahzalik, bor yo'g'i bir lahzalik vaqtini deb u azoblanadi.

Romanning "Chinor" deb atalishi ham, romanda bir mudhish vaziyatni deb boshqa azob-uqubatlar chinor daraxti shoxlari kabi kurtak otib ketganligidadir. Bu fojialar shajarasi azim bir chinor daraxtini hosil qiladi. Taniqli yozuvchining bu romanidan biz hayotda o'z rizqini topish uchun faqatgina halol mehnat va to'g'ri hayot kechirishning o'zi ham yetmasligi mumkinligini anglashimiz mumkin. Biz yana hayotning turli xil egri sinov va qiyinchiliklariga bardoshli bo'lishimiz kerak bo'ladi. Chunki bu roman hayotdan to'g'ri xulosa chiqarish va vaqtning qadriga yetishga undaydi. Shu orqali inson bu dunyoga besabab shunchaki yashab o'tish uchun, vaqtini bekorga sarflash uchun kelmaganini angelaydi. Bu dunyoga keldingmi o'zingdan faqat va faqat yaxshi nom qoldirib yasha, insonlarga va jamiyatga foydang tegsin. Zero, insoniylikning eng birinchi sharti - yaxshilik va mehr- shavqatdir!

Mashhur yozuvchi Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasining bosh qahramoni Yanguli hech qayerda o'qimagan, onasidan go'dakligidayoq yetim qolgan, otasi bo'lsa uzzukun tirikchilik tashvishlari bilan band. Bir qaraganda u – ko'cha bolasi, «o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olish» uning kasbiga aylanib qolgandek. Yanguli, garchi maktab, ustoz ko'rmagan, ota- ona mehridan to'la bahramand bo'lolmagan esa-da, uning tabiatan nozik ko'ngli, mushohadaga moyil aql-u farosati bor!

Nodar Dumbadzening «Hellados» asarini sinchiklab o'qib inson o'z ruhiyati va dunyoqarashini boyitishi mumkin.

Ishimizning amaliy qismiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu hikoya va asarlarni o'qitishda interfaol ta'limga yuzlanish juda muhimdir. Ushbu usullar quyidagi ustunliklarga egadir:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Berilgan asar va hikoyalar asosida o'quvchilar psixologiyasida hayotga muhabbat tuyg'usini shakllantirishda "Savol-javob" metodi, "Klaster" grafik organayzeri, "Insert" grafik organayzeri, "Debat" metodi, "Yagona davra" strategiyasi, "Venn diagrammasi" grafik organayzeri, "Bahs-munozara" strategiyasi, "Aqliy hujum"metodi kabilardan foydalanish mashg'ulot samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

Quyida shunday metodlardan bir nechtasini ko'rib chiqsak:






**“Venn diogrammasi” grafik organayzeri.** Bu grafik organayzer o'quvchilarga mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish, (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniqlash bo'yicha amalga oshiriladi.

Bunday metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, uni zeriktirib qo'ymaydi hamda mashg'ulotlarning bir-birini takrorlamasligi, nazariy ma'lumotlarni bilan esda qolish samaradorligining ortishi o'quvchini mavzularni teranroq o'rganishga undaydi.

Masalan: Unsin va Yanguli kabi ikki qahramonni olib ularni o'zaro umumiy jihatlari o'rtadagi aylanada yoziladi. Ikki tashqi aylanada esa ularning o'zaro alohida xarakter va xususiyatlari yozib chiqiladi va sinf bilan birga tahlil etiladi.

Unsin.

Yanguli



**“Nilufar guli” texnologiyasi.** Ushbu texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos va unga birikkan to'qqizta “gulbarg” (kvadrat, to'rtburchak yoki aylana)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O'quvchilar hal etiladigan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hal etiladigan masala aniqlashtiriladi;
- o'quvchilar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilar kichik guruh yoki juftliklarga birlashtiriladi;
- guruh yoki juftlik a'zolari markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g'oya, vazifa)ni qayd etadilar;
- guruh (juftlik)lar masalaning masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida to'qqizta shunday qo'shimcha chizmalarni hosil qiladi, ularda masalaning xususiy yechimlari bayon etiladi;



- qo`shimcha chizmalardagi g`oyalar gulning "gulbarg"lariga,ya'ni shunday alohida majmuaga olib chiqadi (ularning har biri yana bir muammo ko`rinishini oladi).

- yordamchi chizmalardagi yetakchi muammo (g`oya, vazifa) atrofda "gulbarg"larda xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi;

- o`rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin;

- har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o`z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi;

- guruhlarning yechimlarimuhokama qilinib, eng to`g`ri variant aniqlanadi;

- talabalar har bir guruh ishiga baho berib, mashg`ulotni yakunlaydi.

"Nilufar guli" texnologiyasidan yuqorida keltirilgan asar va hikoyalarni tahlil etishda unumli foydalanish mumkin. Amaliy va seminar mashg`ulotlarda mavzuga oid nazariy ma`lumotlarni talabalar tomonidan o`zlashtirilganligi yoki tahlilida e`tibor qilinishi kerak bo`lgan jihatlarni esga olish maqsadida guruhni kichik guruhlar yoki juftliklarga bo`lib, quyidagi masalalar yuzasidan ushbu metodga murojaat qilish mumkin:

Masalan, Asqad Muxtorning "Chinor" asaridagi bosh qahramonlar timsolining tizimlarini "Nilufar guli" texnologiyasi bo`yicha yoritish.

O'quvchilarning bunday topshiriqlarni bajarishi ularning nazariy ma`lumotlarni puxta o`rganishlari hamda masalaga mantiqan yondashib muhim xulosalarga kelishlarida ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirilgan hikoyalar odamlarni hayotni qadrlashga va sevishga, o`z shaxsiy manfaati ketidagina quvmaslikka, halol, sof ko`ngil bo`lishga, umuman ruhiy boylikka ega bo`lishga, mazlum va muhtojlarni oyog` osti qilmaslikka, maqsadga zo`r berib intilishga, qat`iyat bilan qanday bo`lmasin unga erishishga chaqiradi.